

FRILANSERLIK - O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING YANGI SHAKLI

Bobojonova M.J

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Naimova N.A

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2020 yil 22 aprel kuni aholi bandligini ta'minlash va daromadi keskin kamayishining oldini olish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida asosiy ish joyidan ajralib qolgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni mavsumiy ishlarga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash masalasi muhokama etilar ekan, mutasaddilarga frilanserlik kabi yangi faoliyat turlari haqida gapirib o'tilgan edi. Maqolada frilansing nima va undagi imtiyoz, preferenstiyalar berish, yoshlarni internetdan foydalanib, aqliy mehnat orqali daromad topishga o'rgatish, sohani rivojlantirish uchun xorijda ommabop bo'lgan to'lov tizimlarini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar haqida gapirib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *frilansing, norezident, invoices, marketing, reklama, buxgalteriya, internet, kopirayterlik.*

2020 yil 20 oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida" qonunining 8-bob, 35-moddasida "Internet tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o'zini o'zi band qilgan shaxslar (frilansing) quyidagi huquqlarga ega.

- horijdagi norezidentlar bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardan ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun xorijiy valyutada O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlarga tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tegishli axborot kiritmagan holda, O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlarga xorijiy valyutada to'lov qabul qilish;

- bitim (oferta) to'g'risida ommaviy taklif qabul qilish yoki elektron xabarlar almashish yoxud hisobvaraq-fakturalar (invoices) qo'yish, shu jumladan elektron shaklda qo'yish orqali kontrakt tuzmasdan, chet el jismoniy va yuridik shaxslariga xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish)", deb yozib qo'yilgan.

Koronavirus pandemiyasining oqibatida mehnat bozorida bandlikning yangi shakllari va turlari vujudga keldi. O'zini o'zi bandlikning yangicha – "frilans" va "frilanser" va "frilanserlik" deb nomlanadigan bandlik va band shaxslarga tegishli iboralar xorij malakatlarda paydo bo'lgan. "Frilans" so'zi inglizcha "freelance" so'zidan olingan bo'lib, "free" – erkin va "lance" – nayzani anglatadi.

Frilans va frilanser atamalar "odatda o'z-o'zini ish bilan ta'minlovchi va ma'lum bir ish beruvchiga bog'lanib qolmaydigan shaxs uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi". "Freelancing" atamasi ijodiy sohalarida eng keng tarqalgan hisoblanadi. Ko'pincha, "frilanser"lar toifasi – bu tashkilot shtatida turmagan, an'anaviy mehnat munosabatlariga

kiritilmagan, lekin yagona buyurtmachining subpudratchisi bo'lmagan o'z xizmatlarini mustaqil ravishda turli mijozlarga sotadigan va hech kimga bo'ysunmaydigan yuqori malakali mutaxassisdir, deb tavsiflanadilar.

Frilans – bu o'ziga xos mexanizm bo'lib, uning mohiyati, ma'lum shaxs yoki kompaniya biron bir shaxsni ma'lum bir ishni bajarish uchun norasmiy ravishda yollashidan iborat. O'z mohiyatiga ko'ra frilanserlar o'zini o'zi ish bilan band bo'lgan shaxslar hisoblanadilar. Shu bilan birga, o'zini o'zi ish bilan band qilgan shaxslar – bu shunday iqtisodiy faoliyat shaklidirki, unda individ daromad manbasini mustaqil izlash orqali uning mavjudligini ta'minlaydi va davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga zid bo'lmagan har qanday iqtisodiy faoliyati bilan shug'ullanadi.

Hali-hanuzgacha frilanserlikning huquqiy maqomi yo'qligi sababi mazkur faoliyat turi ko'p mamlakatlarda bandlikning frilanserlar tomonidan shartnoma asosida buyurtmalarni bajarish, yakka-tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Qayd qilish joizki, bandlikning frilanserlik shaklining o'ziga xos xususiyati jismoniy shaxslar tomonidan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan intellektual jihatdan yuqori malakali mehnat turiga kiradi. Ko'pgina frilanserlar marketing, reklama, buxgalteriya, matnlar bilan ishlash (kopirayterlik), kompyuter dasturlash, veb va grafik dizaynerlik, tarjimonlik, huquqshunoslik kabi xizmatlarini ham jismoniy va ham huquqiy shaxslarga frilanserlik yo'li bilan ko'rsatadilar. “Frilans” atamasini o'rganishga bag'ishlangan xorij mutaxassislari Ch. Xendi, U. Bek, M. Kastels, Dj. Rifkin, M. Bextel, D. Pink, R.I. Kapelyushnikov, T.S. Bandyukova, V.E. Gimpelson va boshqalarning ilmiy ishlari mavjud.

Rus olimi N.V.Chaplashkin o'z ilmiy ishlarida “frilans” atamasini ijtimoiy fenomen sifatida ko'rib chiqib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: “Frilans (erkin bandlik) – bu tovar va xizmatlar bozoridagi bandlik turi bo'lib, ishni amalga oshirish shakli va joyi mustaqil tanlashda hamda ish beruvchiga bog'liqlikni past darajasi bilan tavsiflanadi”. Ushbu faoliyat turi bilan shug'ullanadigan xodim (frilanser) o'zi o'zini namoyish etish va ijodiy rivojlanish imkoniyatlari hamda shaxsiy ish tartibini belgilashda yuqori darajadagi erkinlikka ega bo'ladi. Bu ta'rifdan ma'lum bo'liyaptiki, frilans ham mustaqil va ham biron korxonaning shtatidagi xodim bo'lishi mumkin. Frilanser masofadan turib yoki erkin ish jadvali bilan mustaqil faoliyat ko'rsatadigan xodim hisoblanadi.

Masalan, hisob faning bilimdoni oliy ta'lim muassasida bir hissa o'qituvchi lavozimida faoliyat ko'rsatib, talabalarga “Buxgalteriya hisobi va audit” fanidan dars o'tish bilan bir vaqtda, u 2-3 ta savdo do'konlarida shartnoma asosida buxgalterlik ishlarini yuritadi va yillik balans hisobotlarini tayyorlab beradi. OTM o'qituvchisi sifatida u qat'iy dars jadvali va ichki tartib-intizomga rioya qilgan holda pedagogik faoliyatini amalga oshiradi. Savdo do'kondagi amaliy buxgalterlik ishini esa erkin jadval bilan bajaradi. Bu misolda xodimning OTM dagi faoliyati doimiy bandlikka kirsam, uning savdo do'konlardagi faoliyati erkin bandlikka yoxud frilanserlikka taalluqli bo'ladi.

2018-yilgi McKinsey tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, Yevropa va Qo'shma Shtatlarda 162 milliongacha odam frilanserlik bilan shug'ullanadi. Bu butun mehnatga layoqatli

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

aholining 20-30 foizini tashkil qiladi. 2013-yilda Frilanserlar uyushmasi hisob-kitoblariga ko'ra, Qo'shma Shtatlardagi har 3 ishchidan 1 nafari o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydi (taxminan 42 million), ularning to'rt milliondan ortig'i (43%) o'z-o'zini ish bilan band bo'lgan ishchilar ijodiy sinf, qatlam a'zolaridir. bilim xodimlari, texnologlar, professional yozuvchilar, rassomlar, ko'ngilochar va ommaviy axborot vositalari xodimlari kabi mustaqil sohalar bilan bog'liq bo'lgan ishlar. Buyuk Britaniyadagi frilanserlarning umumiy soni ham noaniq; ammo, Milliy statistika boshqarmasi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, masofaviy ishchilar ulushi 2001-yildagi 9,2% dan 2011-yilda 10,7% gacha ko'tarilgan. Biroq, Buyuk Britaniyada taxminan 1,7 million frilanser borligi taxmin qilingan.

Freelancingga bag'ishlangan eng yirik Internet-portalning ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari soniga asosanib (2009 yilda free-lance.ru - freelance.ru saytining ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari soni 350 ming kishini tashkil etdi. 2011-yil sentabriga kelib bu raqam 1 millionga yaqinlashgan bo'lsa, 2012-yil aprelida 1100 ming kishidan oshdi, 2012-yil dekabr oyining oxiriga kelib esa 1300 mingdan oshdi), ularning soni hozir 1,3 milliondan oshib ketdi. Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, Rossiyada deyarli har ikkinchi shahar aholisi (54%) frilanserlik kabi hodisadan xabardor bo'lganligi aniqlandi.

2019 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, frilanserlik bilan shug'ullanadigan bir nechta eng dolzarb sohalar aniqlangan. "Birinchisi soha axborot texnologiyalari va raqamli kasblar sohasi (mutaxassislarining 35%), ikkinchi o'rinda kopirayterlar va kontent-menejerlar (32%), uchinchi o'rinda marketologlar va moliyachilar (25%)". Shuningdek "freelance.ru", "dalance.ru", "weblancier.ru" kab veb-saytlari mualliflari 2016 yilning aprel-may oylarida 54 nafar frilanser ishtirokidagi onlayn so'rovda respondentlarning aksariyati moddiy farovonlik darajasini "qoniqarli" (82 foiz) deb baholashini aniqladi; qoida tariqasida, yaxshi ishbilarmonlik fazilatlariga ega yuqori malakali mutaxassislar frilanserlik bilan shug'ullanadilar; moslashuvchan ish vaqti (64,8%), uyda ishlash qobiliyati (55,6%), boshqa faoliyat turlari bilan uyg'unlasha olish qobiliyati (51,9%) va boshqalar yuqori baholandi.

Rus olimlari O.M.Dudina va D.V.Golovanova 54 ta yosh frilanslarning qiyofasini tuzib, ularning frilanserlik faoliyatining 11 ta afsal tomonini aniqlangan yo'nalishlari bo'yicha quyidagi natijalar aniqlangan:

- Moslashuvchan ish jadvali (64,8%);
- Uyda ishlash imkoniyatlari (55,6%);
- Boshqa faoliyat bilan birlashtirish qulayligi (51,9%);
- O'zingizning xohishingizga ko'ra loyihalarni tanlash imkoniyati (40,7%);
- Ish joyiga bog'lanish yo'q (22,2%);
- Boshliq va nazoratining mavjud emasligi (20,4%);
- Yakka tartibda ishlash imkoniyatining mavjudligi (13%);
- Ish tartib-jadvalining mavjud emasligi (7,4%);
- Daromadning nisbatan yuqori darajasi (5,6%);
- Daromad solig'ini to'lamaslik imkoniyati (1,9%);

O`z javobi (1,9%).

Yuqoridagi ma`lumotlardan frilanslik faoliyatining afzal tomonlarini ko`rib chiqadigan bo`lsak, davlat tomonidan belgilangan qonunlar huquqiy asoslar o`zini o`zi ish bilan bandlikka va shu bilan birga, o`zini o`zi ish bilan band qilgan shaxslar iqtisodiy faoliyat shakllantirishda, yanikim unda individ daromad manbasini mustaqil izlash orqali uning mavjudligini ta`minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
2. Supiyevna, B. M. (2024). O`ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO`LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.
3. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
4. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O`RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).
5. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
6. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
7. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
8. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
9. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
11. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag`batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.
12. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

13. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
14. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
15. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.
16. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
17. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 45-53.
18. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
19. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.
20. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
21. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
22. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
23. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
24. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
25. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
26. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
27. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
28. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

29. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.

30. Sadilloeyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.

31. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 160-166.

32. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал, 6(14).

33. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.

34. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.

35. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.

36. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 138-145.

37. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O' Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.

38. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.

39. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.

40. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.

41. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.

42. TEMPUS, I. (2016). Towards the Modernisation of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATChES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.

43. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.

44. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.